

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATMOSFERA
HAQIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH**

Raxmatova Maloxat Izatulloevna

*Denov tumanidagi 93-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi malokhat6970@gmail.com*

Fattoyeva Nigina Ashurqulovna

*Denov tumanidagi 93-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi fattoyevaaa@gmail.com*

Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
fattoyeva@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida atmosfera haqidagi bilimlarni shakllantirish, zamonaviy metod va usullar orqali mustahkamlash haqida fikrlar bildirildi. Atmosferaning tabiatdagi o'rni va ahamiyatini amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganish samarali natija berishi haqida xulosa qilindi.*

Kalit so'zlar: *havo, ekologiya, inson, jonli, jonsiz, tabiat.*

**FORMING KNOWLEDGE ABOUT THE ATMOSPHERE IN
PRIMARY CLASS STUDENTS**

Abstract. *In this article, thoughts were expressed about the formation of knowledge about the atmosphere in the process of teaching natural sciences to elementary school students, and about strengthening it through modern methods and methods. It was concluded that studying the role and importance of the atmosphere in nature through practical training will give effective results.*

Keywords: *air, ecology, human, animate, inanimate, nature.*



ФОРМИРОВАНИЕ ЗНАНИЙ ОБ АТМОСФЕРЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

***Аннотация.** В данной статье были высказаны мысли о формировании знаний об атмосфере в процессе преподавания естественных наук ученикам начальной школы, а также об их закреплении посредством современных методов и методов. Сделан вывод, что изучение роли и значения атмосферы в природе посредством практических занятий даст эффективные результаты.*

***Ключевые слова:** воздух, экология, человек, живое, неживое, природа.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi 4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, maktablarda tabiiy fanlarni joriy etish bo'yicha o'quv rejalar belgilandi [1].

Hozirgi kunda mamlakatimizda tabiiy fanlarga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda va qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Yangi nashr etilgan darsliklar bo'yicha har bir chorak davomida moslashtirishgan bo'limlar asosida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida o'quv rejalar belgilanib dars jarayonlari tashkil etilmoqda.

Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitilayotgan 1–2-sinflarda "Atrofimizdagi olam", 3–4-sinflarda esa "Tabiatshunoslik" fanlarini, yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fan geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab) va kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi [2].

4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan Tabiiy fanlar darslikda o'quvchilarga atrof-muhit va tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish maqsadida Atmosfera haqida ma'lumotlar ham berilgan.

Atmosfera (qadimgi yunoncha: ἀτμός – atmos – bug' va σφαῖρα – sfera) – yer sharini o'rab olgan va u bilan birga aylanadigan havo qobig'i[3].



Darslikda atmosferaning tarkibiy tuzilishi, qatlamlari, uning tabiatdagi o'рни va ahamiyati, va atmosfera haqidagi bilimlarni o'rganuvchi soha haqida ma'lumotlar berilgan.

Atmosfera bu Yerning havo qobig'i. Gaz qatlamidan iborat bu qobiq sayyoramizni o'rab turadi va uni quyosh nurlanishidan, haddan tashqari issiq va sovuqdan himoya qiladi. Agar Yerda atmosfera bo'lmaganida, kun davomida Yer sirtidagi harorat keskin o'zgarib: Yerning quyoshli tomonida, ya'ni kunduzi harorat 100°C gacha ko'tarilgan, kechasi esa -100°C gacha pastga tushgan bo'lar edi[4].

Yerning havo qobig'i yer atrofini o'rab turadi va himoya qiladi.

O'quvchilar atmosfera haqidagi dastlabki olgan ma'lumotlarini ko'rgazmali vositalar orqali ko'rib idrok etishsa ulardagi atmosfera haqidagi tushunchalari yanada kengayadi, bu esa mavzuni mustahkamroq o'rganishlariga ko'maklashadi.

Atmosfera qatlamlari. Atmosfera bir necha qatlamdan iborat. Yer yuzasiga eng yaqin qatlam juda zich va eng issiq. Butun atmosferaning katta qismi xuddi shu qatlamda joylashgan. Unda shamol va bulutlar hosil bo'ladi. Aynan shu qatlamda hayot mavjud.

Keyingi qatlam taxminan 20 km balandlikda boshlanadi. Ob-havoni kuzatuvchi zondlar ushbu balandlikka ko'tariladi. Parvoz vaqtida kamroq yoqilg'i sarflash uchun samolyotlar ham shu balandlikda uchadi.

Bundan yuqori qatlamda kichik kosmik toshlar- meteoritlar yoki Yerga tushayotgan boshqa jismlar yonib ketadi.

Eng oxirgi qatlamda esa sun'iy yo'ldoshlar yoki kosmik raketalar uchadi[5].

Havo - atmosferadagi eng asosiy modda hisoblanadi.

O'quvchilar uchun Atmosfera mavzusini mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda havo to'ldirilgan sharlardan foydalanish mumkin. Shunda o'quvchilar mavzuni amaliy mashg'ulot orqali mustahkamlab olishadi.

Mavzu davomida o'quvchilar atmosferani o'rganadigan fan haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishadi.



Meteorologiya bu atmosferani o'rganadigan fan. Bu fan atmosfera holati va uning iqlim hamda inson salomatligiga ta'sirini o'rganadi. Meteorologlar havo harorati va namligini, shamol tezligi va yo'nalishini hamda atmosfera tarkibini o'lchaydilar. Olimlar kuzatishlar olib borishda meteostansiyalar (ob-havo stansiyalari), meteozoneklar (havo sharlari) va kosmik sun'iy yo'ldoshlardan foydalanadilar[6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslari jarayonida atmosfera haqidagi bilimlarni shakllantirish muhim mavzulardan biri bo'lib, bu mavzuni o'rganish natijasida o'quvchilar atrofimizni o'rab turgan havo va uning hayotimizda juda katta o'rin egallashi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. FATTOYEVA O'G'ILOVNA. NORMUROTOVA AZIZA KARIM QIZI. TABIIY FANLARNING JORIY ETILISHI HAMDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SCIENCE FANINING O'RNI VA AHAMIYATI. TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA. ILMIY-USLUBIY JURNAL. ISSN: 2181-2659. [1/2025].
2. FATTOYEVA O'G'ILOVNA. NORMUROTOVA AZIZA KARIM QIZI. TABIIY FANLARNING JORIY ETILISHI HAMDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SCIENCE FANINING O'RNI VA AHAMIYATI. TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA. ILMIY-USLUBIY JURNAL. ISSN: 2181-2659. [1/2025].
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Atmosfera>
4. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. /Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko. Toshkent. "Novda Edutainment", 2023. 10-bet.
5. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. /Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko. Toshkent. "Novda Edutainment", 2023. 11-bet. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. /Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko. Toshkent. "Novda Edutainment", 2023. 13-bet.